Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 16-noyabr, № 236-237 (8859-8860) Shanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

AHOLI VA IQTISODIYOT TARMOQLARINI ENERGIYA MANBALARI BILAN BARQAROR TA’MINLASH — ASOSIY MAQSAD

Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-noyabr kuni aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya bilan uzluksiz ta’minlash, soha korxonalarida samaradorlikni oshirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Bu borada 10-iyun kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida vazifalar belgilangan edi. Mutasaddilar shu asnoda amalga oshirilgan ishlar, kuz-qish mavsumiga ko‘rilgan tayyorgarlik to‘g‘risida axborot berdi.

Qayd etilganidek, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sib borayotgan talabiga mos hajmda gaz yetkazib berilmoqda. Tarmoqlar modernizatsiya qilinayotgani, iqtisodiyotda energiya samaradorligi oshirilayotgani natijasida yo‘qotishlar kamaymoqda. Masalan, so‘nggi yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun gaz sarfi 1,6 barobar kamaygan.

Oldinda yana ko‘p vazifalar bor. Hozirgi mavsum va kelgusi yillarda aholini energiya manbalari bilan barqaror ta’minlash, buning uchun yetarli zaxira tayyorlash zarur.

Yig‘ilishda shu masalalar tarmoqlar kesimida muhokama qilindi.

Bu yil qish mavsumida iste’molchilarga 21 milliard kub metr gaz yetkazib berish hisob-kitob qilingan. Havo harorati keskin tushib ketsa, aholi ehtiyoji yanada oshadi. Mutasaddilar bu boradagi rejalarni oyma-oy va tumanlar kesimida bayon etdi.

Ijtimoiy muassasalar va korxonalarni energiya bilan uzluksiz ta’minlash uchun alohida zaxira inobatga olingan. Ushbu tabiiy gazni issiqlik elektr stansiyalari, kimyo va metallurgiya korxonalari, gaz quyish shoxobchalariga manzilli yetkazish bo‘yicha tizim tashkil etilgan.

Tarmoqlarda gaz hisobi va nazorati bo‘yicha boshlangan ishlarni qat’iy davom ettirib, yo‘qotishlarni yanada kamaytirish mumkinligi ta’kidlandi. Andijon, Navoiy va Toshkent viloyatlarida gazni tejash bo‘yicha aniqlangan imkoniyatlarni boshqa hududlarda ham amalga oshirish vazifasi qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga ishni tuman va mahallalar miqyosida tashkil etib, energiya ta’minoti bilan bog‘liq masalalarni joyida hal qilish, talab va iste’molni muvofiqlashtirib, uzilishlarning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Yig‘ilishda gaz sohasidagi transformatsiya jarayonlariga ham to‘xtalib o‘tildi. Tarmoq korxonalari xalqaro moliya bozoriga chiqib, modernizatsiya uchun mablag‘larni mustaqil jalb etishi belgilandi.

Gaz tarmoqlarini yangilash va tartibga solishda eng katta imkoniyat – raqamlashtirish va xususiy sheriklik. Shu nuqtayi nazardan, tarmoqqa xususiy operatorlarni jalb qilish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Prezident har bir tarmoq va uning korxonalari kesimida tannarxni kamaytirish, xarajatni maqbullashtirish va transformatsiya jarayonini tezlashtirish bo‘yicha topshiriqlar berdi. Yetakchi xorijiy kompaniyalarni jalb etib geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish muhimligi aytildi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 17-sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 23-oktabrda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) faoliyatini tartibga solishdan iborat.

2-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo‘lib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) hamda mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) (bundan buyon matnda Ombudsman deb yuritiladi) inson huquqlari bo‘yicha milliy institut sifatida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi. Ombudsman O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchiligini takomillashtirishga hamda uni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini oshirishga ko‘maklashadi.

Ombudsman o‘z faoliyatini tashkilotlar va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshiradi.

Ombudsmanga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi tomonidan imzolanadigan guvohnoma beriladi. Ombudsman guvohnomadan o‘z vakolatlari muddati mobaynida foydalanadi.

3-modda. Ombudsman faoliyatining huquqiy asoslari

Ombudsman o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiradi.

(Davomi 2, 3, 4-betlarda).

SHA’NIMIZ VA OR-NOMUSIMIZ TIMSOLI



Davlat ramzlari – milliy o‘zlik, tarixiy qadriyatu an’analar, ulug‘ niyatlar va ezguliklarni ifoda etgan Vatanimizning aziz timsollari. Agar ularga qalb ko‘zi bilan qarasak, har biri o‘ziga xos, mazmun-mundarijasi go‘zal, alohida kitob ekanini ko‘rish mumkin. Xo‘sh, bu kitobni kim o‘qiy oladi? Kim ularning mohiyatidagi ezgu niyatlarni teran tushunadi?

Surur

Albatta, o‘z yurtini chin dildan yaxshi ko‘rgan, elini ardoqlashga qodir, taqdirini Vatan taqdiri bilan chambarchas bog‘liq ko‘radigan odamlar! Ularni bir so‘z bilan fidoyilar, desak, xato bo‘lmaydi. Men hamisha o‘zimni shunday insonlar qatorida ko‘rishga harakat qilaman va bu yo‘lda mehnatdan qochmayman.

O‘zbekiston bayrog‘i... U haqda o‘ylasam beixtiyor ko‘z oldimga jahon arenalaridagi zafarlarim, g‘oliblikdan so‘ng bayroqni yelkamga yopib davra aylanishim, madhiyamiz yangrashi, keyin bayrog‘imiz yuksakka ko‘tarilishi, shohsupada qaroqlarim namlanib, yuragim tez-tez urib, ichimdan “O‘zingga shukr!” deyishim ko‘z oldimga keladi. Bunday hislarni tuyish, qalbga jo qilishning gashti bo‘lakcha!

Bayroq oddiy mato emas, axir u ramz, or-nomusimiz, qadr-qimmatimiz, matonatli xalqimiz, yuksak zafarlarimiz ramzi. Buni biz, sportchilardek teran anglaydigan, dildan his etadigan odam kam topilsa kerak.

Parij shahrida bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlari hayotimdagi eng quvonchli voqealari o‘laroq xotiramga muhrlandi. Ajoyib hislar og‘ushida yashab, xalqimiz va Yurtboshimiz ishonchini oqlay olganimdan iftixor tuydim, ularning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi hamda qo‘lloviga munosib javob berolganimdan ko‘nglim taskin topdi. Bayrog‘imiz nufuzli musobaqada yuksakka ko‘tarilar ekan, yuragim yanada to‘lqinlanar, jonajon Vatanimiz oldidagi farzandlik burchimni, biroz bo‘lsa-da, ado etolganimdan faxr tuyardim. Bu unutilmas va sharafli lahzalar...

Bugun bayrog‘imiz ozod va obod yurt uzra mag‘rur hilpirab turibdi. U bizni yurtimiz tinchligi, ravnaqi yo‘lida yakdil qilib, mamlakatimiz mustaqilligi, tinchligini hamisha ko‘z qorachig‘idek asrash, buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lish, yuksak ishonch va qat’iyat bilan kelajakka qadam tashlashga da’vat etmoqda. Ishonchimiz komilki, bayrog‘imiz ulug‘ maqsadlarimiz yo‘lida hamisha hilpirab, bizni yangi marralaru manzillarga ilhomlantiraveradi.

Diyora KELDIYOROVA, dzyudo bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi, yozgi Olimpiya o‘yinlari g‘olibi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi.

Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

YURTIMIZDAGI DO‘STLIK VA BIRDAMLIK MUHITI

tinchlik-barqarorlik hamda islohotlar samaradorligi omili



O‘zbekiston – bir yuz o‘ttizdan ortiq millat va elatlarni ko‘ksida avaylab ulg‘aytirayotgan, boshiga panoh bo‘layotgan jonajon Vatan! Bu zaminda o‘zaro do‘st, hamjihat, har qanday vaziyatda bir yoqadan bosh chiqarib, kezi kelsa, bir mayizni qirq bo‘lib yegan turli millat hamda din vakillari bugun yagona xalq sifatida dunyoda o‘z nufuzi va obro‘siga ega bo‘lib bormoqda.



16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni



Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yurtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir.

16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni munosabati bilan turli millat vakillaridan yozib olingan dil so‘zlarida ana shu haqiqat yana bir bor o‘z ifodasini topdi.

5- sahifaga qarang.





Rag‘bat

YUKSAK E’TIBORNING AMALDAGI NAMUNASI

16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni munosabati bilan poytaxtimizda bir guruh hamyurtlarimiz “Diniy bag‘rikenglik” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Tadbirga turli vazirlik hamda idoralar, jamoat tashkilotlari va diniy konfessiya vakillari, milliy madaniy markazlar faollari, yurtimizda millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik rishtalarini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shayotgan hamyurtlarimiz hamda OAV vakillari taklif etildi.

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi S. Toshboyev ushbu mukofotga sazovor bo‘lganlarni samimiy qutlab, bugun yurtimiz ravnaqi yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan hamyurtlarimizga katta muvaffaqiyatlar tiladi va mukofotlarni o‘z egalariga topshirdi.

Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash joizki, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-sentabrdagi “Diniy bag‘rikenglik” ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra ushbu ko‘krak nishoni bilan diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni targ‘ib etish, fuqarolar e’tiqod erkinligini ta’minlash, dinlararo hamjihatlikni mustahkamlash va ma’naviy muhit barqarorligini saqlashdagi ibratli ishlari uchun yetuk ulamolar, atoqli arboblar, diniy soha rahbarlari, xalqaro tashkilotlar vakillari hamda xorijiy olimlar taqdirlanishi belgilangan.

Tantanada so‘zga chiqqanlar yurtimizda davlatimiz rahbari tomonidan diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar natijasida fuqarolarning vijdon erkinligi, din hamda millatlararo totuvlik ta’minlanayotgani, mazkur ko‘krak nishonining ta’sis etilgani diniy sohaga bo‘lgan yuksak e’tiborning yaqqol namunasi ekanini ta’kidlashdi.

“Xalq so‘zi”.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 16-noyabr

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

4-modda. Ombudsman faoliyatining asosiy prinsiplari

Ombudsman faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, mustaqillik, adolatlilik, insonparvarlik, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, xolislik, ochiqlikdan iboratdir.

5-modda. Ombudsman lavozimiga nomzodga qo‘yiladigan talablar

Saylanish kuni o‘ttiz yoshga to‘lgan, kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Ombudsman lavozimiga saylanishi mumkin.

6-modda. Ombudsmanni saylash

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi.

Ombudsman lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining Ombudsmanni saylash to‘g‘risidagi qarori O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida tegishincha Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senati a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ombudsman nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida ko‘rib chiqilganidan keyin palatalarning ushbu masala yuzasidan qabul qilingan qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

Ombudsman o‘z vakolatlari muddati tugagach, yangi Ombudsman saylanguniga qadar o‘z vazifasini bajarishni davom ettirib turadi.

Ayni bir shaxs Ombudsman lavozimiga surunkasiga ikki muddatdan ortiq saylanishi mumkin emas.

7-modda. Ombudsman lavozimiga nomuvofiq bo‘lgan faoliyat

Ombudsman siyosiy partiyaga a’zolikni yoki unda ishtirok etishni o‘z vakolatlari muddatiga to‘xtatib turishi yoxud tugatishi shart. Ombudsman ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

8-modda. Ombudsman o‘rinbosari

Ombudsman o‘rinbosari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi.

Ombudsman o‘rinbosari lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi uchun Ombudsman tomonidan taqdim etiladi.

Ombudsman o‘rinbosari Ombudsmanning zimmasidagi vazifalarini bajarishga ko‘maklashadi, Ombudsman yo‘qligida uning vazifasini bajarib turadi.

Ombudsman o‘z lavozimidan muddatidan ilgari ozod qilingan taqdirda, Ombudsman o‘rinbosari uning vazifasini yangi Ombudsman saylanguniga qadar bajarib turadi va Ombudsman uchun belgilangan kafolatlar ana shu davrda unga nisbatan tatbiq etiladi.

Ombudsman o‘rinbosari siyosiy partiyaga a’zolikni yoki unda ishtirok etishni o‘z vakolatlari muddatiga to‘xtatib turishi yoxud tugatishi shart. Ombudsman o‘rinbosari ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

9-modda. Ombudsmanni yoki uning o‘rinbosarini lavozimidan muddatidan ilgari ozod qilish

Ombudsman yoki uning o‘rinbosari lavozimidan quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan muddatidan ilgari ozod qilinishi mumkin:

u o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish to‘g‘risida ariza bergan taqdirda;

uning sog‘lig‘i holati barqaror tarzda buzilgan va bu tibbiyot muassasasi tomonidan berilgan xulosa bilan tasdiqlangan taqdirda;

unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;

u qonunga ko‘ra Ombudsman (Ombudsman o‘rinbosari) faoliyatiga nomuvofiq bo‘lgan lavozimga saylangan yoki tayinlangan taqdirda;

u sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan taqdirda;

u sudning qarori bilan bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan taqdirda;

u O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotgan taqdirda;

u vafot etgan taqdirda.

2-bob. Ombudsmanning asosiy vazifalari, huquqlari, majburiyatlari va faoliyati kafolatlari

10-modda. Ombudsmanning asosiy vazifalari

Ombudsmanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi to‘g‘risidagi murojaatlarini ko‘rib chiqish;

inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikning amalda ro‘yobga chiqarilishini o‘rganish hamda ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

ichki ishlar organlari tizimiga kiradigan ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo‘ljallangan maxsus muassasalarda, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlarida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizoni hamda qo‘shin gauptvaxtalarida, vaqtincha saqlash hibsxonalarida, tergov hibsxonalarida, jazoni ijro etish muassasalarida, intizomiy qismlarda, majburiy davolash muassasalarida (bundan buyon matnda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylar deb yuritiladi) qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash hollarining oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish;

aholi o‘rtasida inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi xalqaro hamda milliy qonunchilik normalarini targ‘ib qilish, shuningdek aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga ko‘maklashish;

inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

11-modda. Ombudsmanning daxlsizlik huquqi

Ombudsman o‘z vakolatlari muddati mobaynida daxlsizlik huquqidan foydalanadi va u O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki unga sud tartibida beriladigan ma’muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Ombudsmanga nisbatan jinoyat ishi faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Ombudsmanni majburiy keltirishga, ushlab turishga, shuningdek uning uy-joyini, xizmat xonasini, yukini, shaxsiy va xizmat transport vositalarini, yozishmalarini, u foydalanayotgan aloqa vositalarini, shuningdek unga tegishli hujjatlarni ko‘zdan kechirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

12-modda. Ombudsmanning huquqlari

Ombudsman quyidagi huquqlarga ega:

inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi haqidagi xabarlarni tashkilotlar va mansabdor shaxslar bilan birgalikda tekshirish;

tashkilotlarning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish masalalarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq majlislarida ishtirok etish;

tashkilotlarga va mansabdor shaxslar huzuriga moneliksiz kirish;

o‘z vakolatlariga taalluqli masalalar yuzasidan tashkilotlar va mansabdor shaxslardan hujjatlarni, tahliliy materiallarni, xulosalarni va boshqa ma’lumotlarni so‘rash hamda olish;

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda saqlanayotgan shaxslar bilan uchrashuvlar va suhbatlar o‘tkazish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga qaratilgan maxsus ma’ruzalar taqdim etish;

inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida tashkilotlar va mansabdor shaxslarga yozma ravishda ogohlantirish yuborish;

inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida tashkilotlarning rahbarlariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

harakatlarida (harakatsizligida) inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi aniqlangan shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida tegishli tashkilotlarga iltimosnoma kiritish;

fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi arizalar hamda da’volar bilan sudlarga murojaat etish;

insonning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir ilmiy-amaliy, tahliliy ishlarni amalga oshirish uchun ilmiy va boshqa tashkilotlarni, olimlarni, ekspertlarni hamda mutaxassislarni belgilangan tartibda, shu jumladan shartnoma asosida jalb etish.

Ombudsman qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13-modda. Ombudsmanning majburiyatlari

Ombudsman:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va qonun hujjatlariga rioya etishi, o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi;

tashkilotlar va mansabdor shaxslarning o‘z vakolatlari doirasida amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashmasligi;

davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

murojaat etuvchiga uning murojaatini ko‘rib chiqish natijalarini ma’lum qilishi shart.

Ombudsmanning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

14-modda. Ombudsmanning faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruza

Ombudsman har yili, hisobot yilidan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga o‘z faoliyati to‘g‘risida ma’ruza taqdim etadi.

Ombudsmanning faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzada qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash hollarining (bundan buyon matnda qiynoqqa solish hollari deb yuritiladi) oldini olish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ham aks ettiriladi.

Ombudsmanning faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzani O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining majlislarida ko‘rib chiqish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Ombudsmanning faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzani ko‘rib chiqish yakunlari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan qabul qilingan qarorlar Ombudsmanga yuboriladi.

15-modda. Ombudsmanning maxsus ma’ruzasi

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga qaratilgan maxsus ma’ruzalar taqdim etishga haqli. Maxsus ma’ruza insonning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash bo‘yicha xulosa yoki takliflardan iborat bo‘ladi.

16-modda. Ombudsmanning muqobil ma’ruzasi

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan muqobil ma’ruza tayyorlashga va tegishli xalqaro tashkilotlarga taqdim etishga haqli.

17-modda. Ombudsman faoliyatining ochiqligi

Ombudsman o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan manfaatdor shaxslarning, shuningdek ommaviy axborot vositalarining qonunchilikda belgilangan tartibda foydalanishi imkoniyatini ta’minlaydi.

Ombudsman o‘z faoliyati to‘g‘risidagi tegishli axborotni o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi va yangilab turadi, Ombudsmanning faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzani hamda boshqa materiallarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qiladi.

Ombudsman o‘z matbuot organini ta’sis etishi va boshqa matbuot nashrlarining hammuassisi bo‘lishi mumkin.

18-modda. Ombudsman faoliyatining kafolatlari

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etilishi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va (yoki) Senatining tarqatib yuborilishi Ombudsman faoliyatini to‘xtatib turishga yoki tugatishga olib kelmaydi.

3-bob. Ombudsman tomonidan murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi

19-modda. Ombudsman tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish

Ombudsman arizalar, takliflar va shikoyatlar tarzida kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqadi. Ombudsman shikoyatlarni ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda, arizalar hamda takliflarni “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi.

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning, yuridik shaxslarning inson huquqlari va erkinliklarini buzayotgan tashkilotlarning yoki mansabdor shaxslarning harakatlari yoxud harakatsizligi ustidan bergan shikoyatlarini ko‘rib chiqadi hamda o‘z tekshiruvini o‘tkazish huquqiga ega.

Ombudsman uchinchi shaxslarning, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarining muayyan bir shaxsning yoki bir guruh shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi ustidan bergan shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun, basharti ularning bunga roziligi bo‘lsa, qabul qiladi.

Shikoyatlar og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda berilishi mumkin.

Ombudsman qabul jadvallariga muvofiq jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining shaxsiy qabulini, shuningdek jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining sayyor shaxsiy qabullarini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish jadvallari, qabulni o‘tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish to‘g‘risidagi axborot, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tartibi Ombudsmanning rasmiy veb-saytida e’lon qilish, shuningdek uning ma’muriy binosida hamma kirishi mumkin bo‘lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e’tiboriga yetkaziladi.

Ombudsman sudning vakolatlari doirasiga kiradigan masalalarni, shuningdek jismoniy shaxslarning boshqa jismoniy shaxslar tomonidan ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan harakatlariga (harakatsizligiga) doir murojaatlarini ko‘rib chiqmaydi.

Anonim murojaatlar Ombudsman tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

20-modda. Ombudsman tomonidan shikoyatlarni ko‘rib chiqish shartlari

Ombudsman murojaat etuvchiga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risida ma’lum bo‘lib qolgan paytdan e’tiboran yoki, agar murojaat etuvchi o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning boshqa vositalaridan foydalangan hamda qabul qilingan qarorlardan qanoatlanmagan bo‘lsa, uning shikoyati bo‘yicha oxirgi qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran bir yil ichida berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqadi.

Shikoyat berishning uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan muddati Ombudsman tomonidan tiklanishi mumkin.

21-modda. Ombudsmanga beriladigan shikoyatlarga qo‘yiladigan talablar

Ombudsmanga berilgan shikoyatda murojaat etuvchining familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shikoyat yuridik shaxs tomonidan berilgan taqdirda esa uning to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Shikoyatda qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilinayotgan tashkilotning nomi, mansabdor shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi) ko‘rsatiladi, murojaat etuvchining fikricha, uning huquqlarini buzgan qarorlarning, harakatlarning yoki harakatsizlikning mohiyati bayon etiladi.

Shikoyatlar davlat tilida yoki boshqa tillarda berilishi mumkin.

Yozma shikoyat murojaat etuvchining imzosi yoki yuridik shaxs vakolatli vakilining imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Yozma shikoyatni murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo‘lmagan taqdirda, shikoyat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo‘shimcha ravishda yozib qo‘yilishi kerak.

Elektron shaklda berilgan shikoyat qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab shikoyatlar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ularning qonuniy vakillari tomonidan berilishi mumkin.

Ombudsman inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi to‘g‘risida axborot mavjud bo‘lganda yoki himoyaning huquqiy vositalaridan mustaqil ravishda foydalanishga layoqatsiz shaxslarni himoya qilish uchun o‘z tashabbusi bilan faktlar tekshiruvini o‘tkazishga haqlidir.

Shikoyat bo‘yicha ilgari qabul qilingan mavjud qarorlar yoki ularning ko‘chirma nusxalari, shuningdek shikoyatni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlar shikoyatga ilova qilinishi mumkin, mazkur hujjatlar qaytarilmaydi, bundan murojaat etuvchi ularni qaytarish haqida yozma ariza bergan hollar mustasno.

Murojaat etuvchilar va ularning vakillari shikoyatni u ko‘rib chiqilguniga qadar va ko‘rib chiqilayotgan paytda shikoyat yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar yozma yoki elektron shaklda ariza berish yo‘li bilan chaqirib olishi mumkin. Shikoyatni chaqirib olish to‘g‘risidagi ariza qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha Ombudsman tomonidan choralar ko‘rilishini istisno etmaydi.

Ombudsmanga berilgan shikoyat uchun davlat boji undirilmaydi.

22-modda. Ombudsmanning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish chog‘idagi huquqlari

Ombudsman jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish chog‘ida quyidagi huquqlarga ega:

aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlarni tekshirishda ko‘maklashishni so‘rab tashkilotlar va mansabdor shaxslarga murojaat qilish;

aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlarni tekshirish uchun tashkilotlarning vakillarini va mansabdor shaxslarni taklif etish;

mansabdor shaxslardan tushuntirishlar olish, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

aniqlanishi lozim bo‘lgan masalalar yuzasidan tashkilotlar va mutaxassislarga xulosalar tayyorlashni topshirish;

murojaatni uning mohiyatiga ko‘ra hal qilishga vakolatli bo‘lgan tashkilotga yoki mansabdor shaxsga yuborish;

murojaatni ko‘rib chiqishni sababini ko‘rsatgan holda rad etish.

Ombudsman jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish chog‘ida qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

23-modda. Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda saqlanayotgan shaxslarning Ombudsmanga murojaat etishi

Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda saqlanayotgan shaxslar og‘zaki, yozma yoki elektron shakldagi murojaatlarni ularning soni cheklanmagan holda Ombudsman nomiga yuborish huquqiga ega.

Ombudsman nomiga yuboriladigan murojaatlar senzuradan o‘tkazilmaydi.

Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarning ma’muriyati mazkur joylarda saqlanayotgan shaxslarning murojaatlarini Ombudsmanga yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay, muhrlangan tarzda yuboradi, telegrammalarni esa jazoni ijro etish muassasalari darhol yuboradi.

Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda saqlanayotgan shaxslarning murojaatlariga Ombudsmanning yuborilgan javobi ko‘zdan kechirilishi mumkin emas va murojaat etuvchiga zudlik bilan yetkazib beriladi.

Ombudsman, uning o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillari murojaatlar ko‘rib chiqilayotganda, shuningdek inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi hollari Ombudsman tashabbusi bilan o‘rganilayotganda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga moneliksiz kirish huquqiga ega. Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarning ma’muriyati Ombudsmanning, uning o‘rinbosarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillarining xavfsizligini ta’minlashi shart.

Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarning ma’muriyati Ombudsmanga, uning o‘rinbosariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillariga mazkur joylarda saqlanayotgan shaxslar bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda suhbatlashish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashi shart, uchrashuv va suhbatlar ushbu muassasalar xodimlari ularni ko‘rib turadigan, lekin eshitmaydigan sharoitlarda xoli o‘tkaziladi.

Ombudsman Devonining xodimlari harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga Ombudsman tomonidan beriladigan maxsus yo‘llanma bilan moneliksiz kirishi mumkin.

24-modda. Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning Ombudsmanga murojaatlar qutisi orqali murojaat qilishi

Jazoni ijro etish muassasalarining har bir turar joy sektorida, sanoat zonalarida, qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan binolarda mahkumlar murojaatlarni qoldirishi uchun qulay bo‘lgan joyda Ombudsmanga murojaatlar qutisi (bundan buyon matnda Ombudsman qutisi deb yuritiladi) o‘rnatiladi.

Ombudsman qutisi faqat Ombudsman yoki uning Devoni xodimlari tomonidan bir oyda kamida bir marta ochiladi.

Ombudsman yoki uning Devoni xodimlari Ombudsman qutisiga kelib tushgan murojaatlarni qabul qilish uchun jazoni ijro etish muassasalariga moneliksiz kirishga haqli.

Ombudsman qutisini o‘rnatish, undan foydalanish va u orqali murojaatlar yuborish tartibi Ombudsman va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

25-modda. Ombudsman tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlari

Ombudsmanga murojaat qilgan jismoniy va yuridik shaxs, shuningdek Ombudsman tomonidan axborot to‘plash va uni tahlil qilish yoki ekspert bahosini berish topshirilgan shaxslar bunday harakat uchun ta’qib qilinishi yoki ularning huquqlari boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Ombudsman tomonidan murojaatlar ko‘rib chiqilayotganda jismoniy shaxsning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeiga, shuningdek yuridik shaxslarning mulk shakllari, joylashgan yeri (pochta yoki elektron manzili), tashkiliy-huquqiy shakllariga va boshqa holatlarga qarab kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollari tekshirilayotganda ma’lum bo‘lib qolgan, murojaat etuvchining va boshqa shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlar ularning roziligisiz oshkor qilinishi mumkin emas.

26-modda. Arizalar va da’volar

Ombudsman fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab arizalar va da’volar bilan sudlarga murojaat qilishi mumkin.

Ombudsman fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab beriladigan arizalar va da’volar bilan sudlarga murojaat qilganda davlat boji to‘lashdan ozod qilinadi.

27-modda. Xulosa

Ombudsman shikoyatni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan harakatlarida yoki harakatsizligida inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi aniqlangan tashkilotga yoki mansabdor shaxsga insonning buzilgan huquqlarini tiklashga doir tavsiyalar mavjud bo‘lgan o‘z xulosasini yuborishi mumkin.

Ombudsmanning xulosasida quyidagi tavsiyalar nazarda tutilishi mumkin:

ishning tashkilot yoki mansabdor shaxs tomonidan oxiriga yetkazilishi zarurligi;

tashkilotning yoki mansabdor shaxsning qarori asoslanishi zarurligi;

tashkilot yoki mansabdor shaxs qo‘shimcha qaror qabul qilishi kerakligi.

Ombudsmanning xulosasida boshqa tavsiyalar ham bo‘lishi mumkin.

Ombudsmanning xulosasini olgan tashkilot yoki mansabdor shaxs uni ko‘rib chiqishi va bir oydan kechiktirmay asoslantirilgan javob yuborishi shart.

4-bob. Ombudsmanning ta’sir choralari

28-modda. Ombudsman ta’sir choralarining turlari

Ogohlantirish, taqdimnoma, iltimosnoma va talabnoma Ombudsmanning ta’sir choralaridir.

29-modda. Ogohlantirish

Inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqidagi ogohlantirish Ombudsman tomonidan tashkilotlarga va mansabdor shaxslarga yozma ravishda e’lon qilinadi.

Ombudsman mansabdor shaxsga ogohlantirish e’lon qilinganligi to‘g‘risida uning yuqori turuvchi organiga (mansabdor shaxsiga) xabar qilishga haqli.

30-modda. Taqdimnoma

Inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqidagi ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnoma Ombudsman tomonidan tashkilotlarning qonunchilik buzilishlarini bartaraf etish yuzasidan vakolat berilgan rahbarlariga kiritiladi.

Taqdimnoma kechiktirmay ko‘rib chiqilishi lozim va ko‘rilgan choralar to‘g‘risida Ombudsmanga, agar boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, o‘n besh kundan kechiktirmay yozma shaklda xabar qilinishi kerak.

31-modda. Iltimosnoma

Harakatlarida (harakatsizligida) inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi aniqlangan shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida tashkilotlarga Ombudsman tomonidan iltimosnoma kiritiladi.

32-modda. Talabnoma

Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga amalga oshirilgan monitoring tashriflari davomida aniqlangan qiynoqqa solish hollarini bartaraf etish hamda ushbu hollarning oldini olish maqsadida Ombudsman tomonidan tegishli tashkilotlarga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan talabnoma kiritiladi.

Talabnoma tezkorlik bilan ko‘rib chiqilishi lozim va ko‘rilgan choralar to‘g‘risida Ombudsmanga, agar boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, o‘n kundan kechiktirmay yozma shaklda xabar qilinishi kerak.

5-bob. Ombudsmanning qonunchilikni takomillashtirishga doir faoliyati, uning davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi hamda inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro hamkorligi

33-modda. Ombudsmanning qonunchilikni takomillashtirishga doir faoliyati

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli.

(Davomi 3, 4-betlarda).

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2-betlarda).

Ombudsman inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash bo‘yicha ishchi guruhlar faoliyatida ishtirok etishi, loyihalarning huquqiy ekspertizasini o‘tkazishi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida ishtirok etishi hamda muhokama etilayotgan qonun loyihalari yuzasidan takliflar va mulohazalar kiritishi mumkin.

34-modda. Ombudsmanning inson huquqlari sohasida aholining huquqiy madaniyatini oshirishga doir faoliyati

Ombudsman aholining inson huquqlari va erkinliklari sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlari va xalqaro shartnomalari, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari hamda normalari to‘g‘risidagi bilimi va xabardorligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Ombudsman inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vositalarini, usullarini va mexanizmlarini o‘rgatishga qaratilgan ma’rifiy hamda ta’lim dasturlarini, ilmiy-amaliy tadbirlar va seminarlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi.

35-modda. Ombudsmanning parlament nazoratining boshqa subyektlari bilan hamkorligi

Ombudsman jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi hollarini o‘z tashabbusiga ko‘ra tekshirish bilan bog‘liq materiallarni har chorakda umumlashtirib boradi.

Ombudsman jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq materiallarni umumlashtirish hamda inson huquqlari va erkinliklari, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlari buzilishiga olib keluvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash natijalariga ko‘ra davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish masalasini ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi taklif bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘mitalariga murojaat qilishi mumkin.

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining parlament nazoratini amalga oshirishga doir tadbirlarida ishtirok etishga, ularga ko‘rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan materiallar taqdim etishga haqlidir.

36-modda. Ombudsmanning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan hamkorligi

Ombudsman qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilish huquqiga ega.

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi mumkin va sud tomonidan ko‘rib chiqilayotgan barcha masalalar yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini bayon etishga haqlidir.

37-modda. Ombudsmanning O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi bilan hamkorligi

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha majlislarida ishtirok etishga hamda qonunchilikning qo‘llanilishi yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini bayon etishga haqli.

38-modda. Ombudsmanning inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar bilan hamkorligi

Ombudsman o‘z faoliyatini amalga oshirishda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan hamkorlik qiladi.

39-modda. Ombudsmanning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi

Ombudsman mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va boshqa dasturlarni, shuningdek inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni o‘z vazifalari doirasida amalga oshiradi.

Ombudsman o‘zi tomonidan shakllantiriladigan ishchi guruhlar va ekspertlar guruhlari, komissiyalar hamda boshqa jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Ombudsman inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga taalluqli masalalar yuzasidan fuqarolik jamiyati institutlari bilan axborot almashinuvini qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Ombudsman fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o‘tkazishi, shuningdek ular bilan bitimlar tuzishi mumkin.

40-modda. Ombudsmanning inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga doir faoliyati

Ombudsman inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lib kirishga, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va xorijiy institutlar bilan hamkorlikni amalga oshirishga hamda rivojlantirishga haqli.

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro shartnomalari bajarilishi to‘g‘risida inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy institutlarning xabardorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Ombudsman O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro shartnomalarning bajarilishiga doir ma’ruzalarini tayyorlashda ishtirok etadi.

41-modda. Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha komissiya

Ombudsmanning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish yuzasidan uning faoliyatiga ko‘maklashish maqsadida Ombudsmanning taqdimnomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Kengashlari tomonidan Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha komissiya tuzilishi mumkin.

Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha komissiyaning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan Nizom bilan belgilanadi.

42-modda. Ombudsmanning faoliyatiga ko‘maklashish

Tashkilotlar va mansabdor shaxslar inson huquqlari va erkinliklari buzilganligiga taalluqli bo‘lgan, Ombudsman tomonidan so‘ralgan hujjatlarni, materiallarni hamda boshqa ma’lumotlarni taqdim etishi shart.

Ombudsman o‘z faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan darhol qabul qilinish huquqidan foydalanadi.

Faoliyati davlat sirlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilotlarga Ombudsmanning kirishi tartibi, shuningdek davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni Ombudsmanga taqdim etish O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ombudsmanning faoliyatiga to‘sqinlik qilish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

6-bob. Ombudsmanning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillari faoliyati

43-modda. Ombudsmanning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillari

Hududlarda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish hamda ko‘rib chiqish, ularning buzilgan huquqlarini tiklashga ko‘maklashish uchun Ombudsmanning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakili (bundan buyon matnda mintaqaviy vakil deb yuritiladi) doimiy asosda faoliyat yuritadi.

Mintaqaviy vakil Ombudsman tomonidan tayinlanadi. Unga Ombudsman tomonidan imzolanadigan guvohnoma beriladi.

Mintaqaviy vakil bevosita Ombudsmanga hisobdordir.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari mintaqaviy vakil faoliyatiga ko‘maklashadi.

Mintaqaviy vakil hududda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish holati to‘g‘risida Ombudsman bilan kelishilgan holda har yili tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga ma’ruza taqdim etadi.

Mintaqaviy vakilning faoliyati Ombudsman tomonidan tasdiqlanadigan nizom bilan tartibga solinadi.

44-modda. Mintaqaviy vakilning asosiy vazifalari

Mintaqaviy vakilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tegishli hududda inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi monitoringini tashkil etish va o‘tkazish;

tegishli hududda yashovchi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish hamda ko‘rib chiqish, ularning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklashda ko‘maklashish;

o‘z tashabbusi bilan yoki murojaat etuvchining iltimosiga ko‘ra murojaatni ekspertlar, mutaxassislar va manfaatdor tashkilotlar vakillari ishtirokida ko‘rib chiqishni tashkil etish;

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda saqlanayotgan shaxslar bilan uchrashuvlar va suhbatlar o‘tkazish;

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni himoya qilish sohasidagi axborot-ma’rifiy ishlarni mahalliy davlat hokimiyati organlari, ommaviy axborot vositalari vakillari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan birgalikda amalga oshirish.

45-modda. Mintaqaviy vakilning huquqlari

Mintaqaviy vakil quyidagi huquqlarga ega:

inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi haqidagi xabarlarni tashkilotlar va mansabdor shaxslar bilan birgalikda tekshirish;

tegishli hududdagi tashkilotlarning inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq majlislarida ishtirok etish;

tegishli hududdagi tashkilotlarga va mansabdor shaxslar huzuriga moneliksiz kirish;

murojaatni uning mohiyatiga ko‘ra hal qilishga vakolatli bo‘lgan tegishli hududdagi tashkilotga yoki mansabdor shaxsga yuborish;

aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlarni tekshirishda ko‘maklashishni so‘rab tegishli hududdagi tashkilotlar va mansabdor shaxslarga murojaat qilish;

aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlarni tekshirish uchun tashkilotlarning vakillarini va mansabdor shaxslarni taklif etish;

o‘z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan tegishli hududdagi tashkilotlardan va mansabdor shaxslardan statistika ma’lumotlarini, tahliliy materiallarni, xulosalarni va boshqa ma’lumotlarni so‘rash hamda olish;

murojaatni ko‘rib chiqishni sababini ko‘rsatgan holda rad etish.

Mintaqaviy vakil qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

46-modda. Mintaqaviy vakilning majburiyatlari

Mintaqaviy vakil:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va qonun hujjatlariga rioya etishi, o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi;

Ombudsmanning topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi;

o‘z faoliyati to‘g‘risida Ombudsmanga hisobot taqdim etib borishi;

davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini tekshirayotganda ma’lum bo‘lib qolgan, murojaat etuvchining va boshqa shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini ularning roziligisiz oshkor qilmasligi;

murojaat etuvchiga uning murojaatini ko‘rib chiqish natijalarini xabar qilishi shart.

Mintaqaviy vakilning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

7-bob. Ombudsmanning qiynoqqa solish hollarining oldini olish bo‘yicha faoliyati

47-modda. Ombudsmanning qiynoqqa solish hollarining oldini olish bo‘yicha vakolatlari

Ombudsman, uning o‘rinbosari va mintaqaviy vakillari harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga istalgan vaqtda, moneliksiz va dastlab xabar bermasdan monitoring tashriflarini amalga oshiradi.

Ombudsman, uning o‘rinbosari va mintaqaviy vakillari harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga monitoring tashriflarini amalga oshirish chog‘ida:

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda saqlanayotgan shaxslarning soni haqida axborot oladi;

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda saqlanayotgan shaxslarni saqlash va ular bilan muomalada bo‘lish shart-sharoitlarini o‘rganadi;

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda saqlanayotgan shaxslar bilan, shuningdek ushbu joylar ma’muriyatining xodimlari bilan uchrashuvlar va suhbatlar, shu jumladan xoli uchrashuvlar hamda suhbatlar o‘tkazadi. Bunda, zarur bo‘lganda, mazkur uchrashuvlar va suhbatlar jarayoni borishining bayonnomasi yuritiladi, texnika vositalaridan foydalaniladi;

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda shaxsning saqlanishi qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan tanishadi va, zarur bo‘lganda, ulardan ko‘chirma nusxalar oladi;

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylar ma’muriyatiga mazkur joylarda saqlanayotgan shaxsni tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish, unga tibbiy, psixologik va boshqa yordam ko‘rsatish yuzasidan talabnoma kiritadi. Mazkur tadbirlar o‘tkazilayotganda ushbu shaxsning roziligi bilan hozir bo‘lishi mumkin;

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarning ma’muriyati rahbarlaridan mazkur joylarda saqlanayotgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalalari yuzasidan tushuntirishlar oladi.

Ombudsman:

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylar ma’muriyatining g‘ayriqonuniy harakatlariga (harakatsizligiga) chek qo‘yish uchun zudlik bilan choralar ko‘radi;

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni saqlash shart-sharoitlari to‘g‘risida xulosa tuzadi va uni tegishli tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga yuboradi;

tegishli tashkilotlarga ularning qiynoqqa solish hollarining oldini olishga doir faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar kiritadi;

qiynoqqa solish hollarini bartaraf etish bo‘yicha tegishli tashkilotlarga talabnoma kiritadi.

Ombudsman saqlanayotgan shaxslar o‘z ixtiyori bilan chiqib keta olmaydigan boshqa joylarda ham qiynoqqa solish hollarining oldini olish bo‘yicha ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan choralarni, Ombudsman o‘rinbosari va mintaqaviy vakillari esa ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan choralarni ko‘radi.

48-modda. Ombudsman huzuridagi Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash hollarining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlari

Ombudsmanning qiynoqqa solish hollarining oldini olish bo‘yicha faoliyatiga ko‘maklashish maqsadida Ombudsman tomonidan Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash hollarining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlari (bundan buyon matnda Jamoatchilik guruhlari deb yuritiladi) tashkil etiladi.

Jamoatchilik guruhlari, qoida tariqasida, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar ekspertlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillaridan iborat tarkibda shakllantiriladi. Bunda Jamoatchilik guruhi a’zolarining kamida qirq foizini ayollar tashkil etishi kerak.

Ombudsman Jamoatchilik guruhlari faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi hamda ularning vazifalarini belgilaydi.

49-modda. Jamoatchilik guruhlari a’zolari faoliyatining kafolatlari

Jamoatchilik guruhlari a’zolari o‘z vazifalarini bajarishi munosabati bilan o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan holatlar to‘g‘risida guvohlik berishga yoki bu holatlarni biron-bir tarzda oshkor etishga majbur qilinishi mumkin emas. Bu kafolat shaxs Jamoatchilik guruhi tarkibidan chiqqanidan keyin ham amal qiladi.

50-modda. Jamoatchilik guruhlarining faoliyatini tashkil etish

Jamoatchilik guruhlarining faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

51-modda. Ombudsman Devoni

Ombudsman faoliyati Ombudsman Devoni tomonidan ta’minlanadi.

Ombudsman Devoni davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs bo‘lib, o‘z hisob-kitob varag‘iga va boshqa hisobvaraqlariga, o‘z nomi yozilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan muhrga va blankalarga ega bo‘ladi.

Ombudsman Devonining tuzilmasi va uning xodimlarining shtat birligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma qarori bilan tasdiqlanadi.

Ombudsman Devoni to‘g‘risidagi nizom Ombudsman tomonidan tasdiqlanadi.

Ombudsman faoliyatining moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa ta’minoti O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi hamda unda alohida satrda nazarda tutiladi.

52-modda. Ombudsman va uning o‘rinbosarining transportda imtiyozli yurish huquqi

Ombudsman va uning o‘rinbosari qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududida havo, temir yo‘l, avtomobil yo‘lovchilar transportida (bundan taksi va shahar yo‘lovchilar transporti mustasno) imtiyozli yurish huquqiga ega.

53-modda. Ombudsman to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Ombudsman to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

54-modda. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish

O‘zbekiston Respublikasining quyidagi qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan 409–I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 6, 175-modda; 2003-yil, № 9–10, 149-modda; 2004-yil, № 1–2, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 6, 248-modda, № 9, 422-modda, № 12, 595-modda; 2008-yil, № 4, 187-modda, № 12, 636, 641-moddalar; 2009-yil, № 4, 136-modda, № 12, 470-modda; 2010-yil, № 9, 334-modda; 2012-yil, № 9/1, 238-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 8, 310-modda; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 10, 605-modda; 2019-yil, № 3, 165-modda, № 5, 267-modda, № 8, 469-modda, № 9, 588, 592-moddalar, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 6, 337-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 11, 1061-modda, № 12, 1193-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda; 2023-yil, № 2, 104-modda, № 3, 187-modda, № 4, 269-modda; 2024-yil, № 2, 115-modda, № 8, 818, 823, 828-moddalar) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) **18-moddaning ikkinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Shikoyatlarni ko‘rib chiqish, shuningdek fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini o‘z tashabbusi bilan tekshirish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), uning o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil jazoni ijro etish muassasalariga moneliksiz kirish huquqiga ega”;

2) **79^{2}-modda birinchi qismining ikkinchi jumlasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ombudsman qutisi tegishincha faqat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) yoki uning Devoni xodimlari tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) yoki uning kotibiyati xodimlari tomonidan ochiladi”.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”**gi 522–II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 9–10, 136-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 4, 163-modda, № 7, 326-modda; 2008-yil, № 12, 637-modda; 2009-yil, № 4, 136-modda; 2011-yil, № 4, 101-modda; 2013-yil, № 4, 95-modda; 2014-yil, № 4, 86-modda, № 5, 130-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 9, 276-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda, № 7, 431-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 3, 157-modda, № 5, 261, 265-moddalar, № 8, 468-modda, № 9, 588-modda, № 12, 884-modda; 2020-yil, № 8, 488-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 11, 1061-modda; 2022-yil, № 10, 983-modda; 2023-yil, № 12, 1003-modda; 2024-yil, № 2, 109-modda) **33^{3}-moddasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«**33^{3}-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) ma’ruzalarini ko‘rib chiqish**

Qonunchilik palatasi har yili, hisobot yilidan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay o‘z majlisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzani eshitadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzada qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash hollarining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ham aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruza dastlabki tarzda fraksiyalar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Qonunchilik palatasi majlisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzasini muhokama qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) chiqishi bilan boshlanadi, ma’ruzadan so‘ng fraksiyalarning vakillari so‘zga chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzani eshitish yakunlari bo‘yicha Qonunchilik palatasi qaror qabul qiladi, qaror qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakiliga (ombudsmanga) va Senatga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) Qonunchilik palatasiga inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga qaratilgan maxsus ma’ruzani taqdim etishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga qaratilgan maxsus ma’ruzasini ko‘rib chiqish tartibi Qonunchilik palatasining Reglamenti bilan belgilanadi».

3. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to‘g‘risida”**gi 523–II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 9–10, 137-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 4, 163-modda; 2009-yil, № 4, 136-modda; 2011-yil, № 4, 101-modda; 2014-yil, № 4, 86-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 9, 276-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda, № 7, 431-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 2, 47-modda, № 3, 162-modda, № 5, 261, 265-moddalar, № 8, 468-modda, № 12, 884-modda; 2020-yil, № 8, 488-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova, № 11, 1061-modda; 2024-yil, № 2, 109-modda) **32^{4}-moddasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«**32^{4}-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) ma’ruzalarini ko‘rib chiqish**

Senat har yili o‘z majlisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzani eshitadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzada qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash hollarining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ham aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruza dastlabki tarzda Senat qo‘mitalari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Senat majlisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzasini muhokama qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) chiqishi bilan boshlanadi, ma’ruzadan so‘ng Senat qo‘mitalarining vakillari so‘zga chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzasini eshitish yakunlari bo‘yicha Senat qaror qabul qiladi, qaror qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakiliga (ombudsmanga) va Qonunchilik palatasiga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) Senatga inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga qaratilgan maxsus ma’ruzani taqdim etishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko‘rishga qaratilgan maxsus ma’ruzasini ko‘rib chiqish tartibi Senatning Reglamenti bilan belgilanadi».

4. O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrda qabul qilingan **“Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”**gi O‘RQ–298-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011-yil, № 9, 251-modda; 2012-yil, № 9/1, 238-modda; 2019-yil, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda, № 8, 469-modda, № 9, 592-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 11, 1061-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda) **23-moddasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(Davomi 4-betda).

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 16-noyabr

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2, 3-betlarda).

«23-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning), uning o‘rinbosarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillarining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Bola huquqlari bo‘yicha vakilining (Bolalar ombudsmanining) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilning qamoqda saqlash joylariga borishi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), uning o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillari (bundan buyon matnda mintaqaviy vakillar deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil qamoqda saqlash joylariga moneliksiz kirish, shuningdek ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan shaxs bilan uchrashish va suhbatlar o‘tkazish huquqiga ega.

Qamoqda saqlash joyining ma’muriyati O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakiliga (ombudsmanga), uning o‘rinbosariga, mintaqaviy vakillariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakiliga (Bolalar ombudsmaniga) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilga ushlab turilganlar, shuningdek qamoqqa olinganlar bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda suhbatlashish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning), uning o‘rinbosarining, mintaqaviy vakillarining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Bola huquqlari bo‘yicha vakilining (Bolalar ombudsmanining) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilning ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlar bilan uchrashuvlari va suhbatlari qamoqda saqlash joyi xodimlari ularni ko‘rib turadigan, lekin eshitmaydigan sharoitlarda xoli o‘tkaziladi».

5. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan O‘RQ–360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, 12-songa 1-ilova; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 10, 605-modda, № 12, 772-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda, № 7, 431, 433-moddalar, № 12, 783-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 5, 265-modda, № 8, 470-modda, № 9, 588-modda, № 11, 791-modda, № 12, 884, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 203-modda, № 11, 652-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 7, 13-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 803, 804-moddalar, № 10, 973-modda, № 12, 1198-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda, № 6, 577-modda; 2023-yil, № 4, 272-modda, № 11, 923-modda) **70-moddasi birinchi qismi 5-bandining yettinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) Devonini”.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 9-yanvarda qabul qilingan **“Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”**gi O‘RQ–420-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 1, 2-modda; 2019-yil, № 12, 880-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 11, 1061-modda; 2022-yil, № 10, 984-modda; 2023-yil, № 3, 185-modda; 2024-yil, № 3, 244-modda) **23-moddasi birinchi qismining o‘n birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“maxsus qabulxonaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), uning o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillari hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari moneliksiz kirishini va ularning xavfsizligini ta’minlashi”.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvarda qabul qilingan **“Davlat boji to‘g‘risida”**gi O‘RQ–600-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 201-modda, № 5, 298-modda, № 10, 593-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova, № 7, 661-modda, № 8, 800, 803-moddalar, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 2, 76-modda, № 3, 214, 216-moddalar, № 4, 340-modda, № 5, 463, 464, 467-moddalar, № 12, 1186-modda; 2023-yil, № 2, 103-modda, № 3, 186-modda, № 4, 265, 269-moddalar, № 6, 444, 445-moddalar, № 7, 538-modda, № 9, 710-modda; 2024-yil, № 1, 5, 6, 7-moddalar, № 2, 101, 105, 107, 108, 111, 112-moddalar, № 7, 628-modda, № 8, 819, 823, 831-moddalar) quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1) **8-modda birinchi qismi**:

45-bandining to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“og‘ir ahvolga tushib qolgan va og‘ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar hamda oilalar manfaatlarini ko‘zlab berilgan da’volar, arizalar va shikoyatlar yuzasidan”;

quyidagi mazmundagi **46-band** bilan to‘ldirilsin:

“46) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) – fuqarolar manfaatlarini ko‘zlab beriladigan arizalar va da’volar bilan sudga murojaat qilganda”;

2) **10-moddaning birinchi qismi** quyidagi mazmundagi **20-band** bilan to‘ldirilsin:

“20) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) – fuqarolar manfaatlarini ko‘zlab beriladigan arizalar bilan sudga murojaat qilganda”.

Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan **“Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”**gi 392–I-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 4–5, 102-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustda qabul qilingan **“Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida»**gi 669–II-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 9, 169-modda);

3) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 27-avgustda qabul qilingan **“Yangi tahrirdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida»**gi 670–II-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 9, 170-modda);

4) O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»**gi O‘RQ–441-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 8, 385-modda);

5) O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-martda qabul qilingan **“Mahkumlarning hamda qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”**gi O‘RQ–530-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 3, 165-modda) **2-moddasi**;

6) O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-sentabrda qabul qilingan **“Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”**gi O‘RQ–563-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 9, 588-modda) **8-moddasi**;

7) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”**gi O‘RQ–683-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) **73-moddasi**;

8) O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-fevralda qabul qilingan **“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”**gi O‘RQ–909-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2024-yil, № 2, 109-modda) **2-moddasi**.

55-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

56-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

57-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 15-noyabr
№ O‘RQ–1002



Iqlim o‘zgarishi notinch asrimizning asosiy muammolaridan biriga aylandi. Insoniyatning taraqqiyotga erishish yo‘lida tabiatga nisbatan xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lishi atrof-muhit muvozanatining izdan chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Oqibatda sayyoramizda qor qoplami qisqardi, bug‘lanish kuchaydi. Qurg‘oqchilikning tez-tez takrorlanishi, cho‘llanish jadalligining kuchayishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi barqarorligini buzib, oziq-ovqat xavfsizligiga zarar yetkazyapti. Bugun jahon hamjamiyati iqlim o‘zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb tan olayotgani bejiz emas.

Munosabat



Shu yilning 12-13-noyabr kunlari Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi ishtirokchilarining 29-konferensiyasi doirasidagi Iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish yo‘nalishidagi harakatlar bo‘yicha jahon sammiti ham muammo ko‘lami oshib borayotganini ko‘rsatadi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati vakillari to‘plangan ushbu forum iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va uning oqibatlarini yumshatish, iqlimga oid strategiyalar va “yashil” energetikaga o‘tishni moliyalashtirish borasidagi xalqaro sa’y-harakatlarni birlashtirishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Iqlim o‘zgarishi muammosi Orol dengizining qurishi oqibatida kelib chiqqan ekologik inqirozni boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mintaqasi uchun eng o‘tkir muammolardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro anjumanda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi hamda doimgidek ilg‘or takliflarni ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, hozirgi davrda iqlim muammolari jahondagi barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari zamonamizning ayanchli ekologik inqirozlaridan biri – Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyo va unga yondosh mintaqalarda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda.

Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘p, so‘nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni ikki marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib bitdi. Tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo‘ronlari, ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilmaxillik qisqarishi, hosildorlikning keskin pasayishi va ko‘plab boshqa muammolar mintaqada istiqomat qilayotgan millionlab odamlarning turmush sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuning uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish yangi O‘zbekistonning ustuvor strategik vazifasi. Shu bois O‘zbekiston o‘z zimmasiga atmosferaga zararli chiqindilar chiqarishni kamaytirish bo‘yicha majburiyatlar olgan.

Gap shundaki, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida 2015-yil 12-dekabrda Parij bitimi qabul qilingan. Ushbu hujjat 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirgan. Bitimning maqsadi BMT Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha doiraviy Konvensiyasi amalga oshirilishini faollashtirish, global o‘rtacha haroratning 1750-yilgacha bo‘lgan davrdagiga nisbatan 2 darajaga saqlab turish hamda haroratning Selsiy ko‘rsatkichida 1,5 darajagacha o‘sishini cheklashga harakat qilishdan iborat. Bu 2050-yilga borib “issiqxona gazlari” global ajratmalarini 40 – 70 foizga kamaytirishni va 2100-yilga borib uni 0 yoki manfiy ko‘rsatkichga yetkazishni talab etadi.

Iqtisodiyotda “yashil” energetika ulushi 40 foizgacha oshiriladi

Ta’kidlash joizki, 2017-yil 19-aprel kuni BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida O‘zbekiston Parij bitimini imzoladi. Mazkur bitim 2018-yil 3-oktabr kuni ratifikatsiya qilindi. 2030-yilgacha uzoq muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash chora va harakatlarni kuchaytirishni mo‘ljallamoqda.

Parij bitimi doirasidagi bosh maqsad esa mintaqada havo haroratining jadal o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 daraja atrofida saqlab qolishdir. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida e’tirof etganidek, O‘zbekiston uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlarni qat’iy olib boryapti. 2030-yilgacha havoga “isciqxona gazlari” chiqarilishini 35 foizga kamaytirish reja qilingan. Iqtisodiyotda esa “yashil” energetika ulushi 40 foizgacha oshiriladi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda havo ifloslanishini keskin kamaytirishga xizmat qiladigan elektromobil va “yashil” vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xablari yaratilmoqda. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘kalamzor hududlar keskin ko‘paytirilyapti. BMT shafeligi ostida esa Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida trast fondining tashkil etilishi yoki Orolning qurigan tubida o‘rmonzor tashkil etilayotgani, bir yarim million gektardan ziyod maydonda saksovul va cho‘l o‘simliklari urug‘lari sepilganligi va ko‘chatlari ekilganligi ham O‘zbekistonning muammoga befarq emasligini ko‘rsatadi.

Olib borilayotgan islohotlarni jahon hamjamiyati qo‘llab-quvvatlamoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa sifatida belgilanganligini eslatib o‘tish joiz.

Davlatimiz rahbarining “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e’tiborni kuchaytirish masalalari belgilanganligi iqlim o‘zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun xizmat qilmoqda.

E’tiborlisi, Bokudagi “COP29” anjumani doirasida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Ozarbayjon o‘rtasida Yevropaga “yashil” energiya yetkazish bo‘yicha ko‘p tomonlama bitim imzolandi. Ushbu energiya shamol va quyosh energiyasi bo‘lib, qayta tiklanadigan va toza manba hisoblanadi hamda iqlimga ta’sirni yumshatish imkonini beradi. Shu orqali tomonlar Parij bitimi va Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida iqlimni muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shma sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlamoqda.

Qayta tiklanuvchi energiyaning katta zaxiralari mavjud

Mamlakatimiz qayta tiklanuvchi energiyaning katta zaxiralariga ega bo‘lib, global energetik o‘zgarishlarga salmoqli hissa qo‘shishi mumkin. Shu munosabat bilan Prezidentimiz bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning muhim jihatlariga alohida to‘xtalib o‘tdi. Xususan, yurtimizda “yashil” energetikani jadal rivojlantirish bo‘yicha katta dastur qabul qilingan bo‘lib, har yili 2 gigavattga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda.

Bundan tashqari, joriy yil oxirigacha tarmoqqa qo‘shimcha 2,6 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlari va 300 megavattli energiya saqlash tizimlari ulanadi. 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40 foizga yetkazish, shuningdek, 4,2 gigavattlik energiya saqlash tizimlarini yaratish rejalashtirilgan. Buning natijasida o‘n minglab yangi ish o‘rinlari yaratiladi, energetika infratuzilmasi rivojlanadi, texnologik va ishbilarmonlik aloqalari kengayadi. Aholi turmush farovonligi oshadi. Iqlim yaxshilanishiga munosib ulush bo‘lib qo‘shiladi.

> *“Mamlakatimiz qayta tiklanuvchi energiyaning katta zaxiralariga ega bo‘lib, global energetik o‘zgarishlarga salmoqli hissa qo‘shishi mumkin. Shu munosabat bilan Prezidentimiz bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning muhim jihatlariga alohida to‘xtalib o‘tdi. Xususan, yurtimizda “yashil” energetikani jadal rivojlantirish bo‘yicha katta dastur qabul qilingan bo‘lib, har yili 2 gigavattga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda.”*

Afsuski, insoniyat qayta tiklanmaydigan, havoga zararli chiqindilarni ko‘p chiqaradigan energiya resurslariga ruju qo‘ygan. Buning oqibatida oxirgi 20 yil ichida 4,5 milliardga yaqin odamlar yirik tabiiy ofatlar ko‘rinishidagi iqlim o‘zgarishi ta’siridan aziyat chekdi, 1,2 million kishi halok bo‘ldi, iqtisodiy zarar esa qariyb 3 trln. dollarni tashkil etdi.

Mutaxassislarning fikricha, Markaziy Osiyo mamlakatlari geografik joylashuv xususiyatlaridan kelib chiqib, iqlim keltirib chiqaradigan oqibatlarga ko‘proq moyil. Bugungi kunda mintaqa mamlakatlari iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq bir qancha salbiy oqibatlarni boshdan kechirayotir.

Olaylik, muzliklar maydonining qisqarishi tufayli oxirgi 50 – 60 yil ichida mintaqadagi muzliklar maydoni 30 foizga kamaydi. Haroratning 2 darajaga ko‘tarilishi muzliklar maydonining 1,5 baravar, 4 darajaga ko‘tarilishi 80 foizga qisqarishiga olib kelishi mumkin. Suv resurslarining yetishmasligi ham eng yirik muammolardan. Suvdagi stress darajasi mintaqa mamlakatlarida allaqachon kritik darajaga yetgan.

Bashoratlarga ko‘ra 2050-yilga borib suv resurslari Sirdaryoda 5 foiz, Amudaryoda 15 foizgacha qisqaradi. Yerlarning degradatsiyasi va cho‘llanishi ham inkor etib bo‘lmas masalalardan. Mana shularni inobatga olib, davlatimiz yetakchisi Boku sammitida qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etish, BMT shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish, dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar uchun yurtimizda BMTning innovatsion agrosanoat xabini yaratish, iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo‘yicha ilg‘or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish va uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazish taklif va tashabbuslari shular jumlasidandir.

2025-yil 15-may – Xalqaro iqlim kuni Prezidentimiz tashabbusi bilan Orolbo‘yi mintaqasida o‘tkaziladigan Raqamli “yashil” tashabbuslar global yoshlar festivali butun jahon hamjamiyati e’tiborini yana bir bor Orol dengizi inqiroziga qaratish imkonini beradi.

Mazkur bo‘hron so‘nggi 40 yil ichida dengiz maydonining 57 foizi, hajmining 80 foizi va chuqurligining 64 foizi yo‘qolishiga sabab bo'ldi. O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar Orol dengizining qurishi, uning tubidan osmonga ko‘tarilgan pestitsidli changlarning odamlar salomatligi, dehqonchilik va iqtisodiyotga ta’siridan aziyat chekib kelayotganiga ancha bo‘ldi. Dunyoda iqlim o‘zgarishi esa dengizlar o‘ta uzoq joylashgan mintaqada ham suvsizlik, sahrolashish va chang bo‘ronlari kabi holatlarni kuchaytira boshlagan.

“O‘zbekiston – 2030”: ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha vazifalar bilan hamohang

Davlatimiz rahbarining nufuzli xalqaro minbarlarda ilgari surayotgan taklif va tashabbuslari “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha vazifalar bilan hamohang.

Strategiyada ko‘rsatilgan vazifalarga ko‘ra “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 444 ta yashil bog‘ barpo etiladi. Buning uchun barcha davlat idoralari, korxonalar, ta’lim muassasalarining hududida yashil bog‘lar tashkil qilinadi. Bunda, ayniqsa, yirik sanoat korxonalari jonbozlik ko‘rsatishi nazarda tutilgan.

O‘rmonlar maydonini kengaytirish borasida ham vazifalar belgilangan bo‘lib, xususan, respublikaning o‘rmon bilan qoplanganlik darajasini 8,1 foizga, Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni 1,9 million gektarga yetkazish, Orol dengizining qurigan tubida qo‘shimcha 200 ming gektar yashil maydonlarni barpo etish maqsad-vazifalari ifodalangan. Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirining oldini olish maqsadida cho‘llanish, qurg‘oqchilik, chang-qum bo‘ronlari va haroratning ko‘tarilishiga qarshi chora sifatida jami 400 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” – himoya o‘rmonzorlari barpo qilinadi.

Bu esa, o‘z navbatida, turli chang-to‘zonlar ko‘tarilishiga qarshi turishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir haqiqatni unutmasligimiz lozim, kelajak avlod uchun musaffo osmon, go‘zal tabiat hamda uning bebaho ne’matlarini bekamu ko‘st yetkazish bizning burchimizdir. Shu ma’noda, cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish bo‘yicha innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, mahalliy aholining bu boradagi xabardorligini kengaytirish, yerlardan barqaror foydalanish dasturlarini ishlab chiqib, amaliyotda qo‘llashni tashkil etish ham ustuvor vazifalardan bo‘lmog‘i zarur.

Ahmed REYMOV,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti rektori, akademik.

YURTIMIZDAGI DO‘STLIK VA BIRDAMLIK MUHITI

tinchlik-barqarorlik hamda islohotlar samaradorligi omili

Ahillik bor joyda baraka bo‘ladi

Aygul PIRNAZAROVA,
Saviskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyining etnografiya bo‘limi rahbari, “Do‘stlik” ordeni sohibasi:



– Inson hayotida ota-ona, yaqinlar, farzandlar bilan bir qatorda do‘stlarning ham o‘ziga xos o‘rni, ahamiyati bor. Do‘stlik nima bilan o‘lchanadi? Albatta, unga sodiqlik, mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik, dildoshlik, har qanday vaziyatda yonida tura olish bilan!

Shu ma’noda, o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarini eng yaqin do‘stlar, desak, yanglishmaymiz. Keyingi paytlarda Orolbo‘yida turli millat vakillarining hamjihatligini saqlash, ularning urf-odat va qadriyatlarini ulug‘lashga qaratilgan qator amaliy ishlar uddalanmoqda.

Prezidentimizning tashabbusi asosida Nukusda “Oqqush” majmuasi barpo etilib, uning hududida dunyodagi eng katta diametrli o‘tov qurilgan edi. Yaqinda ushbu qoraqalpoq o‘tovi Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildi. Shuningdek, bu yerda qoraqalpoq, qozoq, turkman, qirg‘iz, boshqird kabi turkiy xalqlar o‘tovlari tashkil etilgan. Bu qardosh ellarimiz tarixi, madaniyati va turmush tarzi mushtarakligi ramzidir.

Binobarin, Qoraqalpog‘istonda barcha bayram tadbirlari, muhim sanalarda tumanlar va hududlarda istiqomat qilayotgan boshqa millat vakillari ham o‘tovlar tiklaydi, o‘ziga xos bezatadi. Mana shu ko‘rgazmali tadbirning o‘zi ham mamlakatimizdagi barcha millat va elatlar ahil-inoq umrguzaronlik qilib kelayotganiga hayotiy misol. Zero, ahillik bor joyda baraka bo‘ladi, bayram shukuhi kezadi.

Qulay shart-sharoitlar sharofati

Igor REShETNIKOV,
“Namanganskaya pravda” gazetasi mas’ul kotibi, viloyat rus milliy madaniy markazi faoli:



– Namangan viloyatida hozirda o‘n besh ming nafarga yaqin ruslar umrguzaronlik qilmoqda. Ularning ko‘pi shu joyda tug‘ilib o‘sgan bo‘lsa, boshqalari bu yerni ikkinchi Vatan sifatida qadrlaydi. Mening Rossiyadan “gullar shahri”ga kelib yashay boshlaganimga esa o‘ttiz besh yildan oshdi.

Aytish kerakki, o‘z iqtidori, bilim va tajribasini namoyish etish uchun yaratilgan teng imkoniyatlar rus diasporasining ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishdagi faolligini oshirmoqda. Buni ular orasidan ko‘plab salohiyatli mutaxassislar, el koriga kamarbasta tadbirkorlar, innovatsion g‘oyalari bilan taraqqiyotga hissa qo‘shayotgan yoshlar misolida ko‘rish mumkin.

Ulardan biri – Anna Dobrix va u hozirda viloyatdagi istiqbolli tekstil korxonalaridan birini mahorat bilan boshqarayotir. Iste’mol bozorini raqobatbardosh mahsulotlar bilan to‘ldirish, hudud eksport salohiyatini yuksaltirish borasida ko‘pchilikka ibrat bo‘layotgan tadbirkor ayol “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan.

Erishayotgan yutuqlarimiz jonajon O‘zbekistonimizda barcha millat va elat vakillarining bir oila farzandlari singari hayot kechirishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgani, inson qadri, uning manfaatlari ustuvorligi ta’minlanayotgani sharofatidir.



Cheksiz g‘amxo‘rlikdan bahramandmiz

Yelena DUNINA,
mehnat faxriysi (Termiz shahri):



– Bag‘rikenglik qon-qoniga singib ketgan o‘zbeklar azal-azaldan turli din va millat vakillari bilan do‘st-birodar yashagan. Tabiatan mehr-oqibatli, saxovatpesha bu zamin xalqi suronli urush yillarida, sho‘rolar zamonida qatag‘onu quvg‘inga uchragan ko‘plab millat vakillariga o‘z uyidan boshpana berdi, og‘ir damlarda bir burda nonini baham ko‘rdi. Tatar millatiga mansub yurtdoshlarimiz ham bu o‘zbekona fazilatlardan bahramand bo‘ldi.

Biz, tatarlar ham boshqa diasporalar singari shu elda doimiy qo‘nim topdik, o‘zbeklarga xos do‘stona munosabatlar bois qaddimizni tikladik. Zurriyotlarimiz shu zaminda tug‘ildi, shu yerda ta’lim-tarbiya olib, voyaga yetdi, shu maskanda oilali bo‘ldi, obro‘-e’tibor qozondi. Biz uchun O‘zbekiston haqiqiy Vatan bo‘lib qoldi.

Bu ona zamin muhitiga shunchalar singib ketganmanki, bir lahza bo‘lsin, uzoqlashgim kelmaydi. Qayerda bo‘lsam ham Vatanimga, shu yurtga talpinaman. Chunki O‘zbekistonda hech bir narsaga ehtiyojim bo‘lmaydi. Ayniqsa, keyingi yillarda millatlararo munosabatlarning yangi qirralari keng quloch yoymoqda. Millatimizga xos urfodat va an’analarimiz yanada rivojlanyapti. Bugun bilagimizdan kuch, belimizdan quvvat ketganida ham cheksiz g‘amxo‘rlikdan bahramandmiz. Yurtboshimiz biz, keksalarni hech yolg‘izlatib qo‘ymaydi, mehrini ayamaydi.

Shunday go‘zal, tinch yurtda yashayotganimizdan mamnunmiz. Osmonimiz hamisha musaffo, istiqlolimiz abadiy bo‘lsin!

“Bag‘ri keng o‘zbekning...”

Perizat MINGTAYEVA
(Navoiy viloyati, Konimex tumani,



“Birlik” MFY):

– Har safar davlatimiz madhiyasi yangrab, shu satrlar navbati yetganida qalbimni sohir hayajon chulg‘ab oladi. Xalqimizning bag‘rikengligidan faxr tuyaman. Shu yurtda tug‘ilganimdan g‘ururlanaman.

Men qozoq millati vakiliman. O‘zbekistonda tavallud topib, umumiy o‘rta va oliy ta’limni ona tilimda oldim. Men kabi millatdoshlarim uchun viloyatimizdagi 50 dan ortiq umumta’lim maktablarida ta’lim qozoq tilida yo‘lga qo‘yilib, ushbu jarayonlarda milliy urf-odat va qadriyatlarimiz hamda an’analarimizga yuksak ehtiromni doim his etamiz.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Navoiy viloyati Konimex tumanidagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi Mahallada ijtimoiy xizmatni tashkil etish shu’basi mudiri sifatida mehnat qilyapman. Xizmat taqozosi bilan mamlakatimizda inson qadri naqadar ulug‘lanayotgani, uning manfaatlari davlat manfaatlaridan-da ustuvor qo‘yilayotganiga har kuni guvoh bo‘laman. Masalan, ijtimoiy bag‘rikenglik tamoyillari ijrosida bevosita ishtirok etaman. Shu o‘rinda, yurtimizda millatlararo totuvlik hamda bag‘rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan beqiyos islohotlar amalga oshirilyapti. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ushbu sohada olib borilayotgan izchil siyosat zamirida birdam va hamjihat xalqlarimiz totuvligi o‘z ifodasini topganini alohida ta’kidlamoq joiz. Aynan shu omil yurtimizda osoyishtalik, barqarorlik va farovonlikning bosh mezonidir.

Bizni Vatan tuyg‘usi birlashtirgan

Natalya KAYZER,
Samarqand viloyati nemis milliy madaniy markazi vakili:



– Samarqand shahridagi “Do‘stlik uyi”da viloyat nemis milliy madaniy markazi faoliyat olib boradi. Hududda nemis millatiga mansub 100 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ular orasida tadbirkor, o‘qituvchi, quruvchi, shifokor va boshqa kasb egalari bor.

Vatan tuyg‘usi bizni birlashtirgan. Turli millat va elatlarga bag‘rini ochgan zaminda og‘a-ini, do‘st-birodar, quda-anda, bir xalq bo‘lib, ahillikda umrguzaronlik qilib kelyapmiz. Shu bois bir maqsad atrofida darrov jipslashamiz.

Samarqand viloyati nemis milliy madaniy markazi hukumatimiz va Germaniyaning O‘zbekistondagi elchixonasi tomonidan nemis tilidagi gazeta va jurnallar, kitob hamda boshqa o‘quv qurollari bilan ta’minlangan. Farzandlarimiz ular bilan tanishib, nemis milliy madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘rganmoqda. Shuningdek, yoshlar markazda tashkil qilingan to‘garaklarda nafaqat nemis tilini, balki ona Vatanni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar, milliy liboslar bichish va tikishni o‘zlashtiradi.

Yurtimizda o‘tayotgan Mustaqillik, Navro‘z, Konstitutsiya bayramlarida, festivallarda nafaqat ashula va raqs guruhimiz bilan, balki shtrudel, revalkuxe, pudelsup kabi nemis milliy taomlari bilan ham qatnashamiz.

O‘zbekiston kunlariyu tunlari osuda, tobora ko‘rkamlashayotgan, yangi ufqlarga bo‘y cho‘zayotgan diyor. Tilagim shu yurt taqdiriga daxldorlik, koriga yarash hissi bizni doim ezgu va xayrli ishlarga boshlab yursin.

Bir oilafarzandlarimiz

Obidjon NOSIROV,
Qirg‘iz milliy madaniy markazi Andijon viloyati bo‘limi raisi, “Do‘stlik” ordeni sohibi:

– O‘zbek va qirg‘iz millatlari azal-azaldan qondosh, qarindosh bo‘lgan. To‘g‘ri, tilimiz, urf-odatlarimizda farq bo‘lishi mumkin, biroq maqsadimiz bir. U ham bo‘lsa ona Vatanimizda ahil yashash va shu yurtning ravnaqiga munosib hissa qo‘shishdir. Bugungi kunda ana shu maqsad bilan yashayotgan qirg‘iz millati vakillari soni 150 ming nafardan ziyodni tashkil etadi.

Shu yurtda yashayotgan har bir fuqaro singari qirg‘izlar ham jamiyatda munosib o‘ringa ega. Ularning har biri el-yurt manfaati uchun harakatda. Misol uchun, “Lyuks testil” MCHJ rahbari To‘lanboy Raimovni olaylik. U boshchiligidagi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasida 150 ta ish o‘rni yaratilgan. Jamoa tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar Rossiya va Qirg‘izistonga eksport bo‘lmoqda. Bu kabi yutuqlarga erishishda mamlakatimizda barcha millat vakillari teng huquqli ekani va ularning har sohada erkin va faol ishtirok etishi kafolatlanganidir.

Tan olish kerak, har bir davlatda o‘zga millat vakillari istiqomat qiladi. Biroq ularning barchasida ham milliy qadriyatlar ulug‘lanavermaydi. O‘zbekistonda esa har bir millat va din vakilining urf-odatlari, qadriyatlari, an’analariga hurmat bilan yondashiladi. Jumladan, Andijon viloyatining o‘zida 1 ta qirg‘iz tiliga ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta umumta’lim maktabida qirg‘iz sinflari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda ularda 17 ming nafar bolajon ona tilida saboq olyapti. Andijon davlat universitetida esa qirg‘iz tili filologiyasi bo‘limi tashkil etilgan.

Biz uchun O‘zbekiston oltin beshigimizdir! Shu yurtda tug‘ildik, shu elning tarbiyasini oldik. Bizning Vatanimiz ham, faxrimiz ham shu diyor! Shunday ekan, uning quvonchu tashvishlari ham bizniki. Zero, biz mana shu yurt farzandlarimiz.



Hamfikr vamaslakdoshlik saodati

Galina AKOPDJANOVA,
Farg‘ona viloyati slavyan milliy madaniy markazi rahbari, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi:



– Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan 10 ga yaqin milliy madaniy markazlar qatorida bizning markazimiz ham chorak asrdan buyon samarali ish yuritib kelmoqda. Bugungi kunda markazimiz faollari 200 nafardan ziyodni tashkil etadi.

Ayni paytda viloyatda 45 ming nafarga yaqin millatdoshlarimiz istiqomat qiladi. Slavyan millatiga mansub aholi vakillari So‘x tumanidan tashqari viloyatning barcha shahar-tumanlarida hamyurtlarimiz bilan o‘zaro hamfikr va hammaslak kun kechirib kelmoqda. Markaz qoshida 4 ta – “Slavyanochka” klubi, “Vdoxnoveniye”, “Fantaziya”, “Sudarushka” ansambli faoliyat ko‘rsatadi. Bayram tadbirlarida o‘z dasturlarimiz orqali faol qatnashamiz. Xalqaro bag‘rikenglik kuni munosabati bilan yurtimizda o‘tayotgan “Bag‘rikenglik haftaligi” tadbirlarida boshqa milliy madaniy markazlar bilan hamkorlikda o‘z chiqishlarimizni namoyish etyapmiz.

Men ham O‘zbekistonda qadr va e’zoz topdim. Shu bois o‘zimni barcha hamyurtlar qatori Vatan taqdiri va kelajagiga daxldor hisoblayman. 2021-yili davlatimiz rahbari Farmoniga ko‘ra “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlanganim menga yanada g‘ayrat-shijoat baxsh etadi. Tinch-osoyishta va farovon hayotimizga aslo ko‘z tegmasin.

Eng ardoqli yurt

Radion LI,
Buxoro viloyati koreys milliy madaniy markazi rahbari:



– Oilaviy sabablarga ko‘ra, 2007-yilda Qoraqalpog‘istondan Buxoroga ko‘chib kelganmiz. Oradan besh yil o‘tgach esa milliy madaniy markaz rahbari sifatida ish boshladim. O‘shanda qavmdoshlarimiz bilan yaqindan tanishish, ular ko‘ngliga yo‘l topish, o‘y-tashvishlarini yengillashtirish maqsadida xonadonma-xonadon yurganimizni yaxshi eslayman.

Shu asnoda markazimiz atrofiga 20 nafardan ziyod faollar to‘plandi. Ular bilan birga milliy urf-odatlar, an’analarni asrab-avaylash, targ‘ib etish, madaniy tadbirlar o‘tkazish borasida durustgina tajriba to‘pladik. Rus, tatar, tojik, turkman kabi qator milliy madaniy markazlarning faollari bilan apoq-chapoq bo‘lib ketdik. Biz uchun ardoqli O‘zbekistonda tashkil etiladigan bayram tadbirlarida, xalq sayillarida o‘z dasturimiz bilan qatnashyapmiz. Markazimiz qoshida faoliyat yuritayotgan “Pom” (“Bahor”) xor ansambli ham buxoroliklarga yaxshi tanish.

Ta’kidlash kerakki, viloyat hokimligining ko‘magi, qo‘llab-quvvatlashi o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarni amalga oshirishimizda qo‘l kelyapti. Xususan, viloyat markazida “Do‘stlik uyi”ning foydalanishga topshirilishi, milliy madaniy markazlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi ayni muddao bo‘ldi. Bundan tashqari, mahalliy hokimlik koreys qabristoniga eltadigan yo‘lni obodonlashtirish, ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi yechimida ko‘maklashdi. Har bir murojaatimiz e’tiborda.

Biz, koreys qavmi vakillari asrlar davomida millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik maskani bo‘lib kelayotgan O‘zbekistonda tinch-totuv yashayotganimizdan mamnunmiz.

Madaniyatlarimiz yakdil, qadriyatlarimiz hamohang

Hamro SHAROPOV,
“Navobaxsh” xalq etnografik ansambli badiiy rahbari:



– Mirishkor tumanining Jeynov mahallasi nafaqat tuman yoki viloyat, balki mamlakatimiz miqyosidagi eng nomdor mahallalardan biridir. Bu yerda yurtimizdagi arab diasporasi vakillarining eng katta guruhi yashaydi.

1991-yilda mahallamizda Arab milliy madaniy markazi tashkil etilgan bo‘lib, bu markaz millatimizning o‘ziga xos qadriyatlari, an’ana va urf-odatlarini keng targ‘ib qilish borasida samarali faoliyat olib bormoqda. Markaz qoshida “Navobaxsh” xalq etnografik ansambli ham faoliyat yuritadi. O‘zim ham bir necha yildan buyon ushbu ansamblning badiiy rahbari sifatida faoliyat olib boraman. Ayni vaqtda jamoamiz repertuarida o‘zbek va arab xalqlari folkloridagi ko‘plab qo‘shiq hamda raqslar, xalq milliy o‘yinlari jamlangan. O‘ziga xos liboslar kolleksiyasi mavjud. Viloyat va respublika miqyosidagi deyarli barcha yirik bayram va festivallarda ishtirok etib kelmoqdamiz.

O‘zbek va arab xalqlarining madaniyati, an’analari, turmush tarzi bir-biriga o‘xshash. Biz esa ikki millat vakillarining ana shu tarixiy madaniyatini o‘rganish, to‘plash va tarannum etish, qolaversa, kelajak avlodlarga yetkazib berish yo‘lida mehnat qilayotganimizdan faxrlanamiz.

Men anglagan haqiqat

Abdukarim SHARIPOV,
Jizzax viloyati tojik milliy madaniy markazi raisi:



– Ikki millat, lekin bir xalq, deb ataluvchi o‘zbeklar va tojiklar asrlar osha og‘a-ini bo‘lib, yashab kelmoqda. Xalqlarimiz o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy, adabiy aloqalar ham qadimiy tarixga ega. Bugungi kunda ham madaniy-ma’rifiy munosabatlar har qachongidan rivojlanib bormoqda.

Yoshim saksonni qoraladi. Jannatmonand yurtimizda o‘zbeklar va boshqa millat vakillari bilan bir oila a’zolaridek inoqlikda yashab kelyapman. Bu ham mamlakatimizdagi to‘g‘ri siyosat, ezgu ishlar samarasidir.

Millatlararo do‘stlik O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi hamkorlikda ham muhim rol o‘ynayapti. Masalan, joriy yilning aprel oyida “Kitobsevar millat” shiori ostida Jizzax viloyati axborot-kutubxona markazi va viloyat tojik milliy madaniy markazi hamkorligida Yangiobod tumanining Chakand hamda Forish tumanining Uxum qishloqlaridagi o‘qish tojik tilida olib boriladigan maktablarda madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi. Ularda o‘zbekistonlik ijodkorlar, ma’naviyat targ‘ibotchilari qatorida Tojikistondan taklif etilgan ma’naviyat va ma’rifat markazi faollari ham qatnashdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turli millatlarning ahil yashayotgani, albatta, ona Vatanimiz tinchligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Ha, bizning yer osti va yer usti boyliklarimiz ko‘p, lekin eng qadrlisi, eng asosiysi, albatta, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikdir. Zero, turli millat va elat, din vakillari o‘zaro hurmatda, totuv yashasagina yurtda osudalik, taraqqiyot barqaror bo‘lishini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Shu elni kuylab, shoir bo‘ldim

Ali NASIRLI,
Ozarbayjon milliy madaniy markazi Sirdaryo viloyati filiali faoli, “Do‘stlik” ordeni sohibi:



– Butun jonajon O‘zbekistonimiz kabi Sirdaryo viloyatini ham, hech mubolag‘asiz, o‘nlab millat va elatlarning ko‘rkam gulshaniga qiyos qilsa arziydi. Binobarin, yurtimizning barcha hududidan ko‘chib kelganlar qatorida turli millat vakillari ham asrlar bo‘yi cho‘li biyobon bo‘lgan Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda qatnashgan. Ular vohada birgalikda obod manzillar barpo etish barobarida hamjihatlik, do‘stlik, birodarlikning mustahkam poydevorli qo‘rg‘onini ham qurganlar.

Bugun ana shu ahillik koshonasi yanada ko‘rkam va fayzli. Negaki, keyingi yillarda yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar o‘rtasidagi hamjihatlikni yanada mustakamlash hamda ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, bag‘rikenglikni umummilliy qadriyat darajasida ulug‘lash va rivojlantirishga juda katta e’tibor berilayotir. Faxr bilan aytamanki, hamjihatligimiz dunyo xalqlari ham havas qiladigan eng ulug‘ va bebaho boyligimizdir.

Kamina shu aziz yurtning ozarbayjon millatiga mansub fuqarosiman. Kasbim huquqshunos, ammo meni ko‘pchilik shoir sifatida taniydi. She’rlarimning bosh mavzusi ham Vatan madhi, xalqlar do‘stligi. Millatlararo birodarlikning yanada mustahkam bo‘lishiga she’riy satrlarim bilan, ozmi-ko‘pmi, hissa qo‘shayotgan bo‘lsam, o‘zimni behad baxtiyor hisoblayman. Meni shoir qilgan his esa mana shu takrori yo‘q Vatanim va uning bag‘rikeng, ko‘ngli beg‘ubor, tanti xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbatdir.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Sara to‘plamlarga mansub 14 ta eksponat

Ayni kunlarda Londondagi Britaniya muzeyida “Silk Roads” (Ipak yo‘llari) ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda.



Madaniy meros agentligi ma’lum qilishicha, mazkur ko‘rgazmada O‘zbekistonning eng sara to‘plamlariga mansub 14 ta eksponat taqdim etilgan. Ashyo va buyumlar orqali milodiy 500 – 1000-yillar mobaynidagi davrda Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab kishilar, mahsulotlar hamda g‘oyalarning o‘zaro harakati madaniyat va tarixning shakllanishiga qanday hissa qo‘shgani namoyish qilinyapti.

Somoniylar davlati san’ati hamda me’morchiligida (875 – 999 yy.) forsiy xususiyatlarni uchratish mumkin. Ularni 1919-yilda arxeolog Mixail Masson tomonidan Samarqanddagi Afrosiyob xarobalarining g‘arbiy qismidan topilgan jimjima naqshin to‘qimalardan iborat katta ganchli pannoda to‘liq ilg‘ash mumkin. Somoniylar turarjoy majmuasi devorini bezab turgan salmoqli hajmdagi (102x282 sm.) qo‘l mehnati namunasi deyarli mukammal holatda saqlanib qolgan.

Ma’lumot uchun, ko‘rgazma 2025-yilning 23-fevraliga qadar Britaniya muzeyining “Sainsbery” galereyasida tashrif buyuruvchilar uchun namoyish etiladi.

Aviaqatnovlar soni yanada oshadi

O‘zbekiston Respublikasi hamda Saudiya Arabistoni Podshohligi o‘rtasida havo qatnovi to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim tuzilgan edi.



Ushbu hujjatga asosan joriy yil 14-noyabrda “O‘zaviatsiya” agentligi tomonidan “Flyadeal” aviakompaniyasiga O‘zbekiston Respublikasiga Jidda – Toshkent – Jidda, Madina – Toshkent – Madina, shuningdek, Jidda – Namangan – Jidda yo‘nalishlarida muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish ruxsatnomasi rasmiylashtirib berildi.

Ma’lumot uchun, parvozlar “A320” havo kemasida amalga oshiriladi.

Yo‘lovchilarga qo‘shimcha qulayliklar yaratilmoqda

Urganch shahrida aholiga sifatli jamoat transporti xizmati ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, harakat tarkibini yangilash, yo‘lovchilarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida “Bunyod yo‘lovchi tashish” MCHJ tomonidan XXRda ishlab chiqarilgan “Zong tong” rusumli 30 dona avtobus olib kelindi.



Korxona tomonidan tijorat bankining imtiyozli kreditlari asosida jami ana shu rusumdagi 80 dona zamonaviy avtobusni xarid qilish yuzasidan shartnoma tuzilgan.

Hozirgi kunda loyihaning birinchi bosqichi doirasida 50 ta avtobus sotib olindi. Tez orada qolgan 20 ta avtobus ham yetkaziladi.

“Xalq so‘zi”.

MA’RIFAT VA TA’LIM – DINIY BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI

Ma’lumki, yurtimiz dunyo tamadduni va Islom dini rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ allomalar, aziz-avliyolar yurti sifatida shuhrat qozongan. Bugun milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ajdodlarimizning bebaho merosini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, yangi O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshirish, jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir.

Nuqtai nazar

Shu maqsadda so‘nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yurtimizda millatlararo munosabatlar va din sohasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qancha qonun hujjatlari va qarorlar qabul qilinib, unga ko‘ra mazkur sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlarini himoyalash, turli millat va elat vakillari o‘rtasida konstruktiv va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish bo‘yicha yangi tizim joriy etildi.

Mana shunday ezgu ishlardan biri, bu diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligi asosida yuksak malakali kadrlarni tayyorlash, jamiyatda dinlararo bag‘rikenglik va totuvlik muhitini yanada mustahkamlashni maqsad qilgan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining tashkil etilishi bo‘ldi.

Akademiya islomshunoslik, dinshunoslik, din psixologiyasi, manbashunoslik sohalarida kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar hamda “Jaholatga qarshi ma’rifat” yo‘nalishida targ‘ibot tadbirlarini olib boruvchi respublikamizdagi yagona ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Ayni damda akademiyada xalqaro munosabatlar va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo‘lgan sohalar bo‘yicha jahon standartlariga javob beradigan, nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga raqobatbardosh, keng tafakkurga ega, milliy o‘zlik, davlatchilik va vatanparvarlik xislatlari chuqur shakllangan bakalavr va magistrlar, shuningdek, ushbu sohada chuqur tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlanmoqda. Xalqaro darajadagi kadrlar kamolotda asriy an’analar bilan zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirish asosiy vazifa sifatida belgilab olingan.

Akademiya mamlakatimizdagi diniy-ijtimoiy jarayonlar hamda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash masalalarini o‘rganish, diniy-ma’rifiy soha mutaxassislari ilmiy salohiyatini oshirishga ixtisoslashtirilgan yetakchi davlat ta’lim muassasasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, akademiya qoshidagi Ilmiy kengashda jami 164 nafar tadqiqotchining dissertatsiya himoyalari bo‘lib o‘tdi, ularning 22 foizi (4 ta DSc, 32 PhD) dinshunoslik ixtisosligiga to‘g‘ri keladi.

Akademiya huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlari mintaqaviy filiallariga ega bo‘lgan Malaka oshirish markazi tashkil etilgan bo‘lib, o‘tgan yillar mobaynida 22 ming nafardan ortiq tinglovchilarning malakasi oshirildi. Tinglovchilarga mamlakatimiz hududida yashayotgan millatlar urf-odati hamda Islom dinining madaniy va sivilizatsion merosi, ma’naviy-falsafiy ahamiyati, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan mavzularda malaka oshirish o‘quvlari tashkil etib kelinmoqda.

Bugungi kunga qadar akademiya professor-o‘qituvchilari tomonidan 26 ta dinshunoslik va 39 ta islomshunoslik sohasiga tegishli darslik va o‘quv qo‘llanma nashr etildi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida 200 dan ortiq monografiya, risola va o‘quv adabiyotlari xalqimizga yetkazildi.

Ushbu adabiyotlar ta’lim jarayonida talabalarga din bilan bog‘liq ma’lumotlarni xolislik tamoyillariga asoslangan holda yetkazishga, ularda ilmiy-tahliliy yondashuv, tadqiq etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Talabalarda din haqida xolis, to‘g‘ri dunyoqarashni shakllantirish, turli dinlarning kelib chiqishi, mazmun-mohiyati, ta’limoti va tarixi haqida tushunchalar berish, dunyoda mavjud dinlarga xos bo‘lgan umumiy va xususiy jihatlarni tahliliy o‘rganishda asosiy omil bo‘ladi.

2019-yildan boshlab 16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni bilan bog‘liq tadbirlar O‘zbekistonda “Bag‘rikenglik haftaligi” tarzida keng nishonlanib, uning doirasida brifing, davra suhbatlari, konferensiyalar va boshqa madaniy-ma’rifiy hamda ilmiy-amaliy tadbirlar o‘tkazish ezgu an’anaga aylandi.

Xususan, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida talaba-yoshlar o‘rtasida “Bilimdon dinshunos” intellektual tanlovi, “O‘zbekiston – bag‘rikeng diyor” mavzuida insholar, videorolik va infografikalar tanlovlari, mahalliy va xorijiy mutaxassislar, turli konfessiya vakillari ishtirokida “O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik madaniyati – boqiy qadriyat” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy seminar va boshqa tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, akademiyaning UNESCO bilan hamkorlikda tashkil etilgan Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish kafedrasi UNESCOning dinlararo va madaniyatlararo muloqot yo‘nalishiga ixtisoslashtirilgan tarmog‘iga qarashli dunyoning 27 mamlakatida faoliyat yuritayotgan jami 31 ta kafedradan biri bo‘lib, respublikamizda “Dinshunoslik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlovchi yagona bo‘linma hisoblanadi.

Har o‘quv yili davomida 40 dan ziyod sayyor va 20 dan ortiq binar ma’ruzalar tashkil etilib, talabalar diniy konfessiya vakillari, rahbarlari tomonidan tashkilotlar tarixi, diniy an’analari, marosimlar, ularning xususiyatlari, ibodatxona atributlari bilan tanishtiriladi. Ibodatxonalarda bajarilayotgan marosim turlari, diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va bugungi kunda dindorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida batafsil ma’lumotlar beriladi.

Ushbu yondashuv talabalarda diniy bag‘rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to‘g‘ri qarashni shakllantirish, sog‘lom e’tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi jamiyat a’zolarining ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Bugun yurtimizda millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi yangi O‘zbekistonda mazkur sohada yangicha yondashuv va strategik maqsadlarni birlashtiruvchi tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professor-o‘qituvchilarining bosh maqsadi ham ilmiy tadqiqotlar va ta’lim jarayoni orqali yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish, ularni turli din va e’tiqodlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqali Prezidentimiz tomonidan bildirilgan ishonchni oqlashdan iborat.

Uyg‘un G‘AFUROV,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori.
O‘zA

17-noyabr – Xalqaro talabalar kuni

Talabalik – umr kitobida alohida bob, uni bilimu tajribalar, go‘zal va unutilmas xotiralar bilan bezash esa insonning o‘z qo‘lida, albatta.

Bugun yurtimizda tahsil olayotgan xorijlik yoshlar uchun ham, chet ellardagi oliygohlarda o‘qiyotgan yigit-qizlarimiz uchun ham umr kitobining bu sahifalarini sermazmun va o‘ziga xos unutilmas xotiralar bilan to‘ldirish imkoniyati yaratilgan. Ulardan kutilayotgan yagona narsa harakat, o‘qib-o‘rganish va yurtga munosib farzand bo‘lish maqsadidir.

Quyida biz fikr-mulohazalarini yozib olgan yoshlarning so‘zlari ham aynan shu haqda.

ULKAN ORZULARNING OLTIN PILLAPOYASI

Sitora QARSHIYEVA,
Anqaradagi Hajettepa universitetining hozirgi turk lahjalari va adabiyotlari fakulteti magistranti (O‘zbekiston):



– Mamlakat va xalqning ertangi kuni yoshlarga bog‘liq deymiz hamisha. Xo‘sh, aynan qanday yoshlarga? Albatta, o‘qigan, bilimini mustahkamlash yo‘lidan qaytmaydigan va kelajakda uni xayrli ishlarga sarflaydigan o‘g‘il-qizlarga. Bugun shunday yoshlar qatorida ekanimdan quvonaman, iftixor tuyaman.

O‘zbekistonda o‘tgan talabalik yillarim umrimning eng go‘zal, baxtiyor, yorqin xotiralarga boy bo‘lgan fasli edi, ochig‘i. Uni hamisha entikib esga olaman, bakalavrdagi ustozlarim, ma’ruza zallari va seminar darslari bir-bir ko‘z oldimdan o‘tadi. Ayniqsa, Toshkent ko‘chalari, gavjum metroyu avtobuslar, fayzli va hamyonbop yemakxonalar, mehrli do‘stlar, yor-birodarlar, quvnoq suhbatlarni sog‘inaman.

Mana, bir yildan buyon Turkiyada tahsil olyapman va imkon qadar vaqtdan unumli foydalanish, ko‘proq narsa o‘rganish, oilamni ham, o‘qishimni ham birday eplashga harakat qilyapman. Asosiysi, maqsadimiz ulkan, shukr, bu yo‘lda yolg‘iz emasman, umr yo‘ldoshim va o‘g‘limiz menga yelkadosh, doim qo‘llab-quvvatlashadi.

Tan olish kerak, Turkiyada ta’lim olish bizga nisbatan biroz qiyinroq. Ilmiy adabiyotlar ko‘p, manbalar bisyor, uyga vazifalar hajmi ham sezilarli darajada bizdan farq qiladi. Biroq nima bo‘lgan taqdirda ham ilm olish yo‘lidan qaytmayman, mehnatdan tolmayman. Fursatdan foydalanib do‘stlarimni bayram bilan tabriklayman, bilim olish shijoati hech qachon so‘nmasin!

Gulchin IBRAGIMOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ingliz filologiyasi fakulteti talabasi (Qozog‘iston):



– O‘zbekistonga kelganimga hali ko‘p bo‘lgani yo‘q, ammo bu yerdagi jo‘shqin hayot, o‘ziga xos ta’lim tizimi, bilim oluvchilar uchun yaratilgan muhit, yoshlarga berilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlikni ko‘rib juda xursand bo‘ldim.

Darhaqiqat, yurtingizda yoshlarga barcha imkoniyat eshiklari ochiq. O‘qish deysizmi, bilim va malakasini oshirishmi, barchasi uchun keng sharoitlar yaratilgan. Endi o‘zingiz ayting, siz ta’lim-tarbiya olishingiz, kelajakda yaxshi yashashingiz, hayotda o‘z o‘rningizni topishingiz uchun shuncha inson harakat qilayotgan bir paytda jim turish mumkinmi? Albatta, yo‘q.

Bugun o‘zbek yoshlari, ko‘plab yigit-qiz do‘stlarim, o‘zim ham shu ishni uddalash uchun mehnat qilyapmiz, inson umrining oltin davri hisoblangan talabaligimizni ilmu urfon, go‘zal xotiralar bilan bezashga intilmoqdamiz.

To‘g‘ri, ba’zida o‘z yurtim, oilam va do‘stlarimni sog‘inaman, ammo tahsil olayotgan universitetimizdagi qaynoq muhit, mehribon ustozlarim, qadrdon do‘stlarim tufayli bu sog‘inch biroz pasayadi.

Tengdoshlarimni yoshlikning eng go‘zal shodiyonasi – talabalar ayyomi bilan qutlayman. Umrimning shu pallasi O‘zbekistonda o‘tayotganidan roziman va kelajakda bu yerda olgan bilimlarimni, albatta, ezgu ishlarda qo‘llab, mamlakatlarimiz rivojiga hissa qo‘shuvchi inson bo‘lishga intilaman.

Rahmatjon BOBOJONOV
(“Xalq so‘zi”) yozib oldi.

REKLAMA

“MADAD INVEST BANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKINING OVOZ BERUVCHI (ODDIY) AKSIYALARINING EGALARI BO‘LGAN AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

BILDIRISHNOMA

“Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv kengashi majlisining 2024-yil 21-oktabrdagi 70-sonli bayonnomasi asosida, nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 30 000 000 (o‘ttiz million) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi aksiyalar chiqarilganini hamda ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 2024-yil 15-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligida R0875-6-son bilan davlat ro‘yxatiga olinganini ma’lum qiladi.

Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga muvofiq:

– ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar aksiyalarni, o‘ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega bo‘ladi;

– bank aksiyalarini imtiyozli olish huquqiga ega shaxslarning ro‘yxati 2024-yil 21-oktabr kuni holatiga shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reestrining ma’lumotlari asosida tuziladi;

– imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning faqat butun miqdorini olishi mumkin;

– imtiyozli huquqqa ega bo‘lgan aksiyador aksiyalarni olishi to‘g‘risida o‘zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o‘zi oladigan aksiyalarning soni ko‘rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to‘laganlik to‘g‘risidagi hujjatni bankka (bankning bosh ofisi, filiallari yoki bank xizmatlari ofislari (markazlari) orqali) yuborish orqali o‘z imtiyozli huquqini to‘liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida bankka (bankning Bosh ofisi, filiallari yoki bank xizmatlari ofislari (markazlari) orqali) taqdim etilishi kerak;

– aksiyadorlarning aksiyalarni imtiyozli olish huquqi bildirishnoma e’lon qilingan paytdan e’tiboran 10 (o‘n) kun davomida amal qiladi;

– imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo‘l qo‘yilmaydi;

– ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 5 000 (besh ming) so‘mdan joylashtiriladi;

– aksiyalar uchun to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida faqat pul mablag‘lari bilan naqd va (yoki) naqdsiz shaklda qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

– aksiyalar to‘lanishiga kelib tushadigan naqd va (yoki) naqdsiz shakldagi pul mablag‘lari, shu jumladan, plastik kartalardagi pul mablag‘lari ko‘chirilishi lozim bo‘lgan Emitentning bank rekvizitlari – bank nomi: “Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat banki (qisqa nomi: “Madad Invest Bank” ATB), hisobvarag‘i: 29830000100001142001, bank kodi (MFO): 01142, manzili: 100077, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Sayram 6-tor ko‘chasi, 9-uy bo‘yicha qabul qilinadi.

Imtiyozli huquq asosida har bir aksiyador olishga haqli bo‘lgan aksiyalarning sonini aniqlash tartibi quyidagicha: aksiyador o‘ziga tegishli oddiy aksiyalarni bank tomonidan ilgari joylashtirilgan jami 70 000 000 dona oddiy aksiyadagi ulushini aniqlaydi va shu ulushga teng ulushda ushbu chiqarilishdagi aksiyalardan olishga haqli bo‘ladi.

Bankning elektron pochta manzili: info@madadinvestbank.uz, rasmiy veb-sayti: www.madadinvestbank.uz

Telefon: 55-520-44-44.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.50 Topshirildi — 01.05 1 2 3 4 5 6